



TEKNOLOGIK TA'LIMDA KASB - HUNARGA O'RGATISHNI ILMIY TADQIQOT ISHLARDAGI TAHLILI

Ganiyeva D.B.

*Andijon davlat pedagogika instituti
fizika va texnologik ta'lim kafedrasida 2-kurs magistri*

Tayanch so'zlar: mehnat ta'limi, mehnat tarbiyasi, kasb-xunar, kasbiy dunyoqarash, kompetensiya, texnologik kompetensiyalar, pedagogik faoliyat, o'qituvchi kompetensiyasi, milliy qadriyat, xunarmandchilik, innovatsion texnologiya.

Ключевые слова: трудовое воспитание, трудовое воспитание, профессия, профессиональное мировоззрение, компетентность, технологические компетенции, педагогическая деятельность, компетентность учителя, национальная ценность, мастерство, инновационная технология.

Key words: labor education, labor education, profession, professional outlook, competence, technological competences, pedagogical activity, teacher competence, national value, craftsmanship, innovative technology.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son yoshlarni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashish; Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovi utkazilishi va unda g'olib bo'lgan yoshlarni o'z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan ta'minlanishi; 7,5 ming nafar yoshlar zamonaviy kasblarga o'qitilishi kabi qator vazifalar belgilandi[1]. Shu dolzarflik asosida mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan oliy ta'lim tizimi o'quv jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish, o'qitish intensivligini, samaradorligini oshirish, jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'quvchilarda kasbiy dunyoqarashni rivojlantirish, kasb-xunarga o'rgatish, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish mexanizmlarining huquqiy-me'yoriy asoslari, metod, shakl va vositalarini



takomillashtirish va ularning universal kompetensiyalarga ega bo'lish layoqatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

“Kasb-hunar ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi” [2] deya ta'kidlab o'tgan ulug'larimizdan Abu Nasr Al-Forobiy.

Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini, o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishdan iborat aniq vazifalarning bajarilishini taqozo etadi.

O'quv jarayonini kasbiy yo'naltirish bilan uyg'unlashtirish orqali ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda uning nazariy asoslarini yaratish va ilg'or pedagogik tajribalardan keng ko'lamda foydalanish turli yo'nalishlarda tadqiq etish lozim. Bu yo'nalishlarning har birida fan texnika, texnologiyani rivojlanganlik darajasi va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablari hisobga olinadi.

Texnologiya dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni hunarmandchilikka, kasb-hunarga o'rgatish, kasb tanlashga yo'llash muammolari bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan bir nechtalari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, I.T.Choriev, N.Sh.Shodiev, R.M. Sarsenboeva, S.S.Bulatov, S. Ahmadaliev, U.N.Nishonaliev, B. Doniev, R.N.Ashurov, M.X.Shomirzaev, A. Parmonov, Sh.S. Sharipov va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat ta'limi fanida 5-7-sinf o'quvchilarida badiiy konstruksiyalash ishlariga doir bilim ko'nikmalarini shakllantirish A.E.Parmanovning ilmiy tadqiqot ishlarida asoslab berilganligini ko'rishimiz mumkin[3].

N.Sh.Shodievning ilmiy tadqiqot ishlarida esa, kasbga yo'naltirishning muhim sohalaridan biri hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasblarga yo'naltirish, o'quvchilarni kasb tanlash motivatsiyasi bo'yicha ishlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni olib borishi, kasbiy axborotlar uyushtirish, o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash hamda tadqiq etish masalalariga yondoshilgan[4].

I.T.Choriev, o'zining “O'zbekiston qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi” nomli o'quv qo'llanmasida o'quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va uslublarini yoritib bergan[5].

U.N.Nishonalievning ilmiy tadqiqot ishlarida bo'lsa, mehnat ta'limi fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni turli tarixiy davrlarga bo'lib o'rganilganligi hamda mehnat ta'limi fani o'qituvchilari shaxsining innovatsion xislatlari tadqiq etilgan[6].



Mehnat ta'limi jarayonida xalq hunarmandchiligiga oid o'quv tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish, ushbu tadbirlarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyatlariga R.Sarsenboevaning ishlarida duch kelamiz[7].

B.B.Doniev ilmiy tadqiqot ishlarida mehnat ta'limi o'qituvchisining pedagogik faoliyatini nazorat qilish, o'quv maqsadlarini shakllantirish metodikasini ishlagan bo'lsa, B.U.Olimov mehnat ta'limi darslarida o'qitishning noan'anaviy usullarini, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodlar va ularni amlda qo'llash metodikasini ishlab chiqqan.

A.U. Vorobyev ilmiy tadqiqot ishlarida asosan mehnat ta'limi metodikasi va kasb tanlashga yo'llash, yoshlarimizga mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasini berish metodlari shu bilan bir qatorda texnikaviy mazmundagi sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi yoritilgan[8].

Xalq amaliy bezak turlari kelib chiqish tarixi va uning ishlatilishi, milliy me'morchilikda amaliy bezak san'at falsafasi, ganchkorlik ya'ni yog'och bilan ishlash, yog'och turlari, eskizlar tayyorlash va yog'ochlarga naqshlarni ganch usulida o'yish ishlari haqida fikrlar S.S.Bulatov ilmiy tadqiqot ishlarida bildirilgan[9].

N.R. Ashurov ilmiy tadqiqot ishlarida o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishning tarixiy rivojlanishi, o'ziga xos jihatlari, o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarining imkoniyatlari, milliy qadriyatlarga asoslangan o'quv tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyatini, pedagogik shart-sharoitlarini xalq hunarmandchiligi misolida ilmiy asoslab bergan[10].

N.A.Muslimovning ilmiy tadqiqot ishlarida esa, kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi ilmiy muammo sifatida qaralib, uning nazariy-metodologik asoslari va tarkibiy tuzilmasi asoslab berilgan. Tizimli yondashuv texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllanishi muammosini tadqiq qilishning umumilmiy asosi sifatida tadqiq etilgan. Unda pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo'lajak kasb ta'limi fani o'qituvchisini tayyorlash, uning kasbiy pedagogik faoliyatini modellashtirish, kasb ta'limi fani o'qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodologik asoslari, kasbiy pedagogik shakllanganlik darajasini baholash metodikasi va pedagogik fanlarning bo'lajak kasb ta'limi fani o'qituvchisini kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari kabi masalalar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan[11].

O'.Q.Tolipovning ilmiy tadqiqot ishlarida esa oliy ta'lim tizimi bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashning mezonlari va nazariy asoslari yaratilgan. Kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirish samaradorligi va sifatini nazorat qilishning pedagogik texnologiyalari asosidagi ko'rsatkich va mezonlari ishlab chiqilgan[12].



Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni kasb-xunarga o'rgatish, ularda kasbiy dunyoqarashni shakllantirishning imkoniyatlarini inobatga olinib, ushbu fan mazmunida o'quvchilarga kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni, mulohaza, did, his-tuyg'u, e'tiqodni rivojlantirishga ko'maklashuvchi, mavzularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish bilan o'quvchilar faolligi va mustaqil faoliyati bilan integratsiyasi asosida tashkil qilish kafolatlangan natijalarga olib keladi. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida kasbiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni kasbga yo'naltirish jarayonida, fanlar bo'yicha invariant ta'lim metodlarni qo'llagan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq merosi, 1999. 224 b
3. Parmonov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida badiiy konstruksiyalash elementlariga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish: ped. fan. nom.:... Dis. – Toshkent: TDPU, 2006. – 160 b.
4. Shodiev N.Sh. Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashni o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 1987. – 232 b.
5. Choriev R.K. Formirovanie professionalno-metodicheskix umeniy injenerov-pedagogov.: Avtoref. dis. ...kand. ped. nauk.-T.: 1998. -21 s.
6. Nishonaliev U.N. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari: muammolar, yechimlar // Pedagogik ta'lim. -Toshkent, 2000. -№3. – B. 23-24.
7. Sarsenbaeva R.M. Mehnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy metodik asoslari. Ped.fan.nom. ... diss. – T.: 2004.
8. Vorobev A.I. Teoriya i praktika proizvoditel'nogo truda uchastixsya v usloviyax reformy obshchobrazovatel'noy shkoly. – T.: Fan, 1986.
9. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Metodik qo'llanma. – T.: "Mehnat", 1991. –B. 85-86
10. Ashurov N. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped.fan.dokt. ... dis.– T.: 2004. – 314
11. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2007. – 45 b. b.
12. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2004. – 314 b.

РЕЗИОМЕ

Maqolada kasb-hunarga o'rgatishni ilmiy tadqiqot ishlardagi tahlili hamda uning shakllanishiga oid turli yondashuvlar ilmiy asoslab berilgan. Shu bilan birga texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni kasb-xunarga urgatish, ularda kasbiy dunyoqarashni shakllantirishning imkoniyatlari bayon etilgan.

РЕЗИОМЕ

В статье научно обоснован анализ профессиональной подготовки в научно-исследовательских работах и различные подходы к ее формированию. При этом описываются возможности обучения студентов профессии и формирования профессионального мировоззрения при преподавании технологии.

SUMMARY

In the article, the analysis of vocational training in scientific research works and various approaches to its formation are scientifically justified. At the same time, the possibilities of training students in the profession and forming a professional worldview in the teaching of technology are described.